

O‘RTA TOLALI G‘O‘ZANING KOMBINATSIYALARIDA OILALARNING VILT KASALLIGI BILAN ZARARLANISHI

Rasulov Soyibjon Tolibjonovich - dotsent, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy nav va tizmalarni chatishtirish natijasida olingan duragay avlodlarini turli ekish sxemasida ekib o‘rganish asosida o‘rta tolali g‘o‘zaning tola hosildorligini oshiruvchi omillar, ya‘ni tola indeksi yuqori bo‘lgan hamda vilt kasalligiga bardoshli boshlang‘ich ashyolar yaratish, o‘rta tolali g‘o‘zaning kombinatsiyalarida oilalarning vilt kasalligi bilan zararlanishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘o‘za, o‘simlik, ekish sxemasi, chatishtirish, duragaylar, tola chiqimi, tola mahsuldorligi, hosildorlik, tola indeksi, tezpishar.

ПОВРЕЖДЕНИЕ РАСТЕНИЙ ХЛОПЧАТНИКА БОЛЕЗНЬЮ УВЯДАНИЯ В КОМБИНАЦИЯХ СРЕДНЕВОЛОКНИСТОГО ХЛОПКА

Расулов Сойибжон Толибжонович - доцент, Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий, Узбекистан.

Аннотация: В данной статье приведены сведения о факторах, повышающих выход волокна средневолокнистого хлопчатника, то есть создании первичных материалов с высоким индексом волокна и устойчивых к заболеванию вилтом, а также поражении семей с заболеванием вилт в комбинациях средневолокнистого хлопка, на основе изучения гибридного потомства, полученного в результате скрещивания местных сортов и гряд в разных схемах посадки.

Ключевые слова: Хлопок, растение, схема посадки, скрещивание, гибриды, урожайность, урожайность волокна, показатель волокна, скороспелост.

DAMAGE TO COTTON PLANTS BY WILT DISEASE IN COMBINATIONS OF MEDIUM-FIBER COTTON

Rasulov Soyibjon Tolibjonovich - Associate Professor, Andijan Institute of
Agriculture and Agrotechnology, Uzbekistan.

Annotation: This article provides information on the factors that increase the fiber yield of medium-fiber cotton, that is, the creation of primary materials with a high fiber index and resistant to wilt disease, and the damage of families with wilt disease in combinations of medium-fiber cotton, based on the study of the hybrid offspring obtained as a result of crossing local varieties and ridges in different planting schemes.

Key words: Cotton, plant, planting scheme, crossbreeding, hybrids, fiber yield, fiber yield, yield, fiber index, quickness.

Qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan boshlang‘ich ashyolarni seleksiya jarayonlariga jalb etish orqali tola hosildorligini oshirish va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlarda keltirilishicha g‘o‘zaning turli biotik omillar bilan zararlanishi natijasida hosildorlik 20-40 foiz va undan ko‘proq kamayishi kuzatilgan. Shu sababli, yaratilayotgan navlar vilt va gommoz kasalliklariga bardoshli bo‘lishi ham muhim qimmatli xo‘jalik belgilardan biri hisoblanadi. Ushbu kasalliklar bo‘yicha xorijiy va Respublikamiz seleksioner olimlari tomonidan ushbu muammoni hal etishga qaratilgan ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Biroq, viltning yangi irqlari paydo bo‘lishi, rivojlanishi uchun havoning qulay kelishi ushbu muammo borasidagi izlanishlarni uzluksiz davom ettirishni talab qiladi. Vertitsillyoz vilt bilan asosan g‘o‘zaning o‘rta tolali navlari kasallanadi, uning qo‘zg‘atuvchisi tuproq zamburug‘i *Verticillium dahliae* Kleb. hisoblanadi. Vilt zamburug‘lari doimo o‘zgarib o‘simlikka moslashish xususiyatga egadir. Yaratilayotgan yangi g‘o‘za navlari tezpishar, hosildor, tola chiqimi va sifati yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda turli kasalliklarga, jumladan, vilt kasalligiga

ham bardoshli bo'lishi zarur. Vilt bilan zararlangan paxta maydonlarida hosildorlik kamayishi bilan birga tola sifati ham keskin kamayib ketadi.

Jahonda *Verticillium dahliae* Kleb zamburug'lari yuz yildan buyon katta muammo bo'lib kelmoqda. Tropik mamlakatlarda ayrim biotik omillar keltiradigan zararlar natijasida 50 foizgacha hosil yo'qotilmoqda. Vilt kasalligi dunyoning barcha g'ozga ekiladigan mamlakatlarida uchraydi, ammo uning tarqalishi har xil bo'ladi. G'ozga kolleksiyasi umumjahon xazinasini bo'lib, barcha paxta yetishtiruvchi davlatlar olimlari ulardan foydalanib, o'ta murakkab genotiplar ajratib, kasalliklarga bardoshli 2-3 genomli navlar yaratgan. Seleksioner yangi navni yaratishda ushbu nav yuqori hosildorlikka, yaxshi tola sifatiga va tezpisharlikka ega bo'lishi bilan bir qatorda mexanizatsiyadan ishlov berishga va hosilni yig'ishtirib olishga, keng foydalanishga mos mineral o'g'itlarga talabchan bo'lishi, atrof-muhitning noqulay omillariga, jumladan tarqalgan kasalliklarga, zararkunandalarga bardoshli bo'lishi va ko'pgina boshqa xususiyatlari bilan ajralib turishi lozim. Bunday genetik jihatdan murakkab miqdoriy belgilarni turli xil duragaylash va tanlash uslublari bilangina bir yerga jamlashga erishish qiyindir.

Bu muammoni bartaraf etish uchun seleksiya jarayonida kasalliklarga chidamlilik bo'yicha ham ishlash zarurdir, ya'ni dala sharoitida terib olingan eng yaxshi yakka tanlovlarni *Verticillium dahliae* Kleb zamburug'i bilan zararlab, g'ozaning viltga chidamli shakllarini tanlab olish mumkin bo'ladi.

Biz tadqiqotlarimizda o'rta tolali g'ozaning T-18 tizmasini andoza Andijon-35 g'ozga naviga nisbatan vilt kasalligi bilan zararlanishi bo'yicha taqqoslab o'rgananimizda quyidagicha natijalar olindi. T-18 tizmasi F₅ (UzPITI-203xT-19) kombinatsiyasining 17 ta oilalari har bir oilada 50 ta o'simlik andoza Andijon-35 naviga nisbatan vilt kasalligi bilan umumiy darajada zararlanishi bo'yicha taqqoslab o'rganilganida oilalarda 4 foizdan 12 foizgacha oraliqda, andoza Andijon-35 navi bo'lsa 44 foiz zararlanganligi kuzatildi.

Vilt kasalligi bilan kuchli darajada zararlanishi bo'yicha T-18 tizmasi oilalari o'rganilganida oilalarda 0 foizdan 6 foizgacha oraliqda, andoza Andijon-35 navi bo'lsa 18 foiz zararlanganligi kuzatildi (1-jadvalga qarang).

T-18 tizmasi oilalaridan uchinchi, yettinchi, o'ninchi va o'n uchinchi oilalar boshqa oilalarga nisbatan vilt kasalligi bilan umumiy darajada ham kuchli darajada ham kuchliroq zararlanganligi aniqlandi. Bu oilalardan uchinchi oilada umumiy darajada vilt kasalligi bilan zararlanishi 12 foiz, kuchli darajada bo'lsa 4 foiz kasallanganligi kuzatildi.

**O'rta tolali g'ozaning T-18 tizmasi F₅ (UzPITI-203xT-19)
kombinatsiyalarida oilalarning vilt kasalligi
bilan zararlanishi (2022 y).**

1-jadval

T-18 tizmasi F ₅ (UzPITI-203xT-19) kombinatsiyasi oilalari	O'simlik soni	Vilt kasalligi bilan zararlanishi			
		Umumiy darajada		Kuchli darajada	
		Dona	Foiz	Dona	Foiz
1	50	5	10,0	2	4,0
2	50	4	8,0	1	2,0
3	50	6	12,0	2	4,0
4	50	2	4,0	-	0,0
5	50	2	4,0	3	6,0
6	50	3	6,0	1	2,0
7	50	5	10,0	3	6,0
8	50	4	8,0	2	4,0
9	50	3	6,0	1	2,0
10	50	5	10,0	3	6,0
11	50	4	8,0	2	4,0
12	50	6	12,0	3	6,0
13	50	5	10,0	3	6,0
14	50	2	4,0	-	0,0
15	50	4	8,0	1	2,0
16	50	3	6,0	1	2,0
17	50	5	10,0	2	4,0
St. Andijon-35	50	22	44,0	9	18,0

Yettinchi oilada umumiy darajada vilt kasalligi bilan zararlanishi 10 foiz, kuchli darajada bo'lsa 6 foiz kasallanganligi, o'ninchi oilada umumiy darajada vilt

kasalligi bilan zararlanishi 10 foiz, kuchli darajada bo'lsa 6 foiz kasallanganligi kuzatildi. O'n uchinchi oilada umumiy darajada vilt kasalligi bilan zararlanishi 10 foiz, kuchli darajada bo'lsa 6 foiz kasallanganligi kuzatildi. Ushbu uchinchi, yettinchi, o'ninchi va o'n uchinchi oilalar vilt kasalligi bilan boshqa oilalarga nisbatan kuchli darajada zararlanganligi sababli, bu oilalar chiqitga chiqarildi.

Tadqiqotlarimizda o'rta tolali g'ozaning T-20 tizmasini andoza Andijon-35 g'ozaga naviga nisbatan vilt kasalligi bilan umumiy va kuchli darajada zararlanishi bo'yicha taqqoslab o'rgananimizda quyidagicha natijalar olindi. T-20 tizmasi F₅ (UzPITI-203xS-2609) kombinatsiyasining 17 ta oilalari har bir oilada 50 ta o'simlik andoza Andijon-35 naviga nisbatan vilt kasalligi bilan umumiy darajada zararlanishi bo'yicha taqqoslab o'rganilganida oilalarda 4 foizdan 14 foizgacha oraliqda, andoza Andijon-35 navida bo'lsa 44 foiz zararlanganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Х.Эгамов, А.Рахимов, С.Расулов, Й.Хурматов. Изучение морфологических и хозяйственно-ценных признаков новых сортов хлопчатника в условиях Андижанского вилоята - Актуальные проблемы современной науки, 2019.

2. E.Khusanboy, K.I.Xayitmuratovich, R.S.Tolibjonovich... Increasing the uniformity of cottonvaries Andijan 35 sown in theandijan Reguon- PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 2020.

3. F.Toreev, B.Orozov, G.Shodmonova, - Tolerance of cotton to certain biotic factors and fiber quality parameters of the ridges created by simple and complex hybridization. E3S Web of Conferences, 2023.

4. Х.Эгамов, З.Рахмонов, С.Бахромов - Устойчивость новых сортов и линии хлопчатника к сосущим вредителям. Современные тенденции развития науки и., 2015.